IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI BOSHQARUVDA AYOLLAR ROLI

Hazratqulov Ozodbek

Tarix fakulteti Tarix va qo'shimcha huquq davlat nazariyasi

yo'nalishi 2-V guruhi talabasi

Muftillayeva Umida

Ilmiy rahbar: Tarix kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatimizda ayollarning roli ayniqsa tarixda Amir Temurdek buyuk hukmdor davrida uning boshqaruvida jamiyatda ayollarga e'tibor va ularning davlat boshqaruvidagi o'rni va roli haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek maqolada xususan jamiyatda o'z o'rniga va so'ziga ega temuriy malikalarida haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Bibixonim, Sharafiddin Aliyazdiy, Ibn Arabshoh, harbiy yurishlar, boshqaruv, hukmdor, temuriy malika, bunyodkorlik ishlari, ilm fan homiysi.

Temur va temuriy shaxzodalar bilan bir qator temuriylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham iste'dotli siyosatdan, yetuk suxandon hamda dunyoga mashhur olimalar yetishib chiqdi. Bilamizki aksariyat davlatlarning hammasida davlat tepasida hukmdor turadi. Davlatni boshqarishda bu hukmdorlarning rafiqalari ham ko'rinmas kuchga egadir. Temuriylar davrida malikalarning qilgan bunyodkorlik ishlari qurilish sohasida ham ko'rishimiz mumkin. Ko'hna moziydan xabar beruvchi tarix zarvaraqlarini varaqlar ekanmiz, ijtimoiy sohaning barcha sohalarida erkaklar bilan bir qatorda buyuk jasorat sohiblarining nomlari ham tarannum etib kelinganligining guvohi bo'lamiz. Ayollar orasida ham shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar hamda zukko san'atshunoslar yetishib chiqdi. Temuriylar davrida ham davlat boshqaruvida ayollarning roli bor di. Bu davrda ko'plab me'moriy obidalar hamda madrasalar qurilishida malikalarning o'rni katta. Temuriylar davrida ham malikalarning qurilish ishlaridagi ahamiyati juda katta edi. Temuriy malikalar haqida ko'pgina qiziqarli qo'lyozma va toshbosma asarlarni ko'rishimiz mumkin ular haqida. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zarafnoma" si, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari" kabi asarlaridan bilishimiz mumkin. Bu kabi asarlarda ham maliklalarning davlat ishlaridagi o'rni, ahamiyati , qilingan bunyodkorlik ishlari keltiriladi. Temuriy malikalar haqida gapirilganda dastlab Sohibqiron Amir Temurning rafiqasi Saroymulkxonimni qilgan bunyodkorlik ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Saroymulkxonim Chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozog'onning qizi edi. Saroymulkxonim voyaga yetgach 1355- yilda Amir Husayn nikohiga kiradi. Amir Temur Amir Husaynni yengib uni qatl etgach oradan 3 oy o'tgach uning xotini Saroymulkxonimni o'z nikohiga oladi. Sohibqiron Amir Saroymulkxonimni nikohiga olgach "Ko'ragon" unvonini oladi. Ya'ni ko'ragon so'zi mo'g'ulchada tarjima qiladigan bo'lsa, "Kuyov" degan ma'noni beradi. Amir Temur Saroymulkxonimni o'ziga nikohlamasdan oldin barcha malikalardan ulug'rog'i hisoblanib, " Katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvoniga sazovor bo'ladi[1]. Biz uni ko'p tarixchilarning asarlarida "Bibixonim" deb tilga olinganligini ko'ramiz. Aslida bu malikaga berilgan unvon

[1] .Turg'un Fayziyev : " Temuriy Malikalar" . 6-7-betlar.

hisoblanadi. Albatta bunday e'tirofga musharraf bo'lish uchun, aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo'lgan. Bu malika haqida tarix zarvaraqlarida zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor, husn-latofat bobida ham betakror ekanligi ta'kidlanadi.Saroymulkxonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy hayotidan yaxshigina xabardor ekanligi, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turuvchi ayol edi. Ayniqsa, Saroymulkxonim ilm-ma'rifatga qiziquvchi, ilm sohiblariga homiylik qiluvchi ayol edi. Bu malika haqida gapirilganda temuriylar davrida bu insonning ilm-tolibligiga qoyil qolgan insonlar ko'p edi. Saroymulkxonim Amir Temur urush vaqtlari ham mamlakatdagi qurilish ishlari, obodonchilik ishlariga bosh bo'lardi. Saroymulkxonim Amir Temur bilan harbiy yurishlarda ham ko'pincha birga borgan. Tarixiy manbalarning yaxdillik bilan bergan ma'lumotlariga qaraganda o'ta ziyrak, tadbirkor Saroymulkxonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan qatnashgan. Amir Temur Saroymulkxonimga oshkora bo'ysunmasada uning maslahatlariga ehtiyoj sezardi. Saroymulkxonim haqida gapirilganda Temuriylar davrida ilm-fanga oshiq tolibi-ilm homiysi sifatida tan olingan malika edi. Temuriy malikalarning gapirilganda birinchi bo'lib Sohibqiron Amir Temurning xotini bo'lmish Saroymulkxonimning fazilatlari namoyon bo'ladi. Tarixchilarimizning aytishicha Amir Temurning Eronga qarshi yurish boshlaganda Isfaxonning qamali ko'pga cho'zilib, qo'shinni oziq-ovqat bilan ta'minlashga mablag' yetishmay qoladi. Shunda Amir Temur Samarqandga Saroymulkxonim chopar yo'llab maktub jo'natadi. Maktub qisqa bo'lib: "Qo'shinning zaxirasi tugadi, zar yuboring" deyilgandi. Ulkan ilm- sohibi, dono maslahatchi Saroymulkxonim shunda maktub mazmunidan ogoh bo'lgach maktubning orqasiga "Ulug' amir zarringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz ham tugadimi?"- deb yozadi va uni choparga tutqazadi. Amir Temur maktubni olgach, Saroymulkxonimni kinoyali zomramosini o'ylab-o'ylab vanihoyat bir qarorga keladi: so'yilgan qo'y, ot va tuyalarning suyaklarini yig'ish unga muhr bosib uni pul o'rnida ishlatilishi haqida farmon chiqaradi. Urush tugagach Isfaxon taslim bo'lgach yana zarga almashtiradi. Shu orqali suyakdan pul vositasida foydalanib oziq-ovqat bilan askarlarni ta'minlaydi. Temuriylar davrida malikalarga katta hurmat ehtirom ko'rsatilgan. Buni hatto chet el elchilari kutib olish marosimida ham bilib olishimiz mumkin. Chet elchilari bilan kutib olinganda hukumdorning oldida albatta malika o'tiradi. Bundan kelib chiqadiki Temuriylar davrida malikalarning hurmati yuksakligini bilib olishimiz mumkin. Bu haqda Klavixo ham o'z esdaliklarida yozishicha Samarqandda "Dilkusho" bog'ida kutib olingan elchi bu qabul marosimida Amir Temurning yonida Saroymulkxonim va boshqa xotinlarining yuzlariga parda tashlab o'tilganini aytadi. [2]Hatto Saroymulkxonimni qurilish ishlariga ham homiylik qilgani tarix zarvaraqlarida keladi. Saroymulkxonim Amir Temurdan madrasa qurish uchun ijozat so'raydi. Amir Temur rozi bo'lgach otasi Qozog'on tomonidan sovg'a qilingan bir juft bilakuzukni sotib, bu mablag'ni madrasa qurish uchun sarflaydi. Saroymulkxonim madrasa qurilish jarayonida tez-tez kelib ish boshqaruvchilarga qurilish bo'yicha o'z fikirlarini aytadi. Saroymulkxonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar ulkan va mahobatligi jihatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrislari tayinlanib, ular tolibi-ilmlarga diniy va dunyoviy bilim berganlar. Amir Temur ham Saroymulkxonimni amalga oshirgan qurilish ishlariga yuksak baho bergan. Amir Temurning o'zi ham Hindiston yurishidan qaytib kelgach 1399-1404 yillar. Saroymulkxonimga atab Samarqandda "Bibixonim" jome masjidini qurdiradi. Bu

[2] Klavixoning esdaliklaridan.

Temuriylar o’z malikalarga yuksak baho berish orqali namoyondir. Temuriylar davrida malikalarga e’tibor yuqori bo’lganligidan dalolat beradi. Birgina Amir Temurning xotini Saroymulkxonim emas balki bunday ma’rifatparvarlar, ilm homiylari juda ko’pdir. Temuriylar davridagi malikalarning amalga oshirgan ishlarini aytib o’tar ekanmiz bu malikalar orasida Gavharshodbegimni aytib o’tishimiz lozim. Gavharshodbegim Shoxruh Mirzonani suyukli katta xotini edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Gavharshodbegim yuksak did farosatli, oqila, tadbirkor, suxandon, bir so’zli, qattiyatli, husn bobida ham benazir ayol bo’lgan. Tabiati dindor Shohrux Mirzo ko’p vaqtini toat-ibodat, va kitob mutolasiga sarfladi. Saltanat va devon ishlarini o’ktam va tadbirkor xotini Gavxarshodbegim boshqarardi. Hatto Shohruxning o’zi donoligiga tan berar, saltanatni boshqarishda oqilona tadbirli maslahatlariga ehtiyoj sezib turardi. Shu bois saltanatga doir ishlar malikaning nazar - e’tiboriga havola etilar edi. Hatto yurishlarda ham Shuxruh Mirzo bilan birga bo’lardi. Malika yuqori lavozimdagi lashkarboshilarini hatti-harakatlarini kuzatardi. [3]Bu malikaning donoligi, siyosatdan xabardorligi, amalga oshirgan ishlarini boshqa Temuriylar ham hayron qolardi. Temuriylar davrida malikalar yuqori sifatlangan ularning davlat boshqaruvida dono maslahatlari ham hisobga olinardi. Temuriylar davrida malikalarning amalga oshirgan ishalari yuqori baholanar edi. Hatto Jahongir Mirzoning sevimli xotini Mumtoz Mahalga atab Hindistonda “Tojmahal” qurdirgani bunga misol bo’lishi mumkin. Bundan bilinib turibdiki Temuriylar davrida maliklarga e’tibor kuchli bo’lganligini bildiradi. Bundan tashqari Temuriylar davrida malikalarning o’rni beqiyosdir. Yana shunday e’tiborli aql-zakovatta tengi yo’q maliklardan Xadichabegim, Shod Mulk Xotun, Xurram begim, Mehriniso begim, Jahonaro begim, Zebiniso begim va boshqa malikalarni aytishimiz mumkin. Sharqda bunday malikalar donoligi, aqlliligi, olimaligi bilan ajralib turavchi ko’plab malikalarning sanashimiz mumkin. Bunday malikalar G’arbda sanoqligina uchrashi mumkin. Birgina Temuriy malikalarning amalga oshirgan ishlari davlat siyosatidagi o’rni, oqilona maslahatlari butun sharqni qoyil qoldirsa ajab emas. Har bir davlatda malikaning o’rni uning siyosatdagi ahamiyati ko’rinmas kuchga egadir. Hozirgi kunda ham davlat boshqaruvida ham ayollarning o’rni beqiyosdir.

Davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ayollarning ahamiyati ham juda yuqori baholanib kelinmoqda. Yurtimizda xotin-qizlarga yuqori e’tibor berilmoqda. Davlat boshqaruvida ham ayollarning amalga oshirayotgan ishlari ham diqqatga sazovor. Davlatimizda kundan – kunga xotin –qizlarga e’tibor yuqorilanib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham “Oila va xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jaddalashtirish to’g’risidagi” farmoni bunga yaqqol misol bo’ladi. Mamlakatda xotin-qizlarni huquq va qonuniy mansablani himoya qilish iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatini oshirish va sog’liqni saqlash va shunga doir ishlar olib borilmoqda.[4]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xotin-qizlarga e’tibor qadimdan yuqori baholanib kelinganligini hozirgi kunda ham bu ishlarning davom etayotganligini ko’rishimiz mumkin. Davlat boshqaruvida ham ijtimoiy hayotda ham ayollarning roli beqiyosdir. Hozirgi kunda ham xotin-qizlarga e’tibor yuqoriligi ularni qo’llab-quvvatlash uchun ko’plab amaliy ishlar yo’lga qo’yilmoqda. Hatto ayollar Amir Temur qo’shinlarida ham xizmat qilganligi aytiladi.

Arabshoh shunday yozadi: “Temur lashkarida ayollar ham bo’lib ular dushman bilan bo’lgan to’qnashuvda matonat

[3] Turg’un Fayziyev: “ Temuriy Malikalar “. 13-14- bet.

[4] Shavkat Mirziyoyev: “ Oila va xotin-qizlarni qo’llab quvvatlashga doir ishlarini yanada jadallashtirish to’g’risida farmon”. 2-3- bet.

ko’rsatardilar. Nayza sanchishda, qilich o’ynatishda va kamondan mo’ljalga olishda mohir askarlardan ko’ra ham ortiqroq jang qilardilar.”

Bundan ko’rinib turibdiki ayollarning mardligi, jasurligi, donoligi qadimdan ma’lum. Hozirgi kunda ham ijtimoiy hayotda, davlat boshqaruvida, amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ayollarning o’rni ahamiyati diqqatga sazovordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

. 1.Turg’un Fayziyev : “Temuriy malikalar”
. 2.S harofiddin Ali Yazdiy : “ Zafarnoma”
3.https: uz . ru. Docs- 5884143.